

20-Aprel, 2026-yil

MAKTABGACHA TA‘LIMDA INKLYUZIV MUHITNI  
SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI

**Baxtiyorova Farangiz Zafarjon qizi**

*Farangiz.baxtiyorova27@gmail.com.*

*Tel: +998870251124*

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada mamlakatimizda joriy qilinayotgan yangi ta’lim tizimi ya’ni inklyuziv ta’lim tizimining takomillashuvi, va bu ta’lim tizimi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ham joriy qilinganligi, inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirish maqsadida yangi qaror va farmonlar qabul qilinib, vazifalar yuklatilganligi haqida so’z boradi.*

**Kalit so’zlar:** *ta’lim, tarbiya, inklyuziv, rivojlanish, takomillashuv, harakat*

**Abstract:** *This article discusses the new system of education in our country, ie the improvement of the system of inclusive education, and the introduction of this system of education in preschool education, the adoption of new decisions and decrees to develop the system of inclusive education , it is said that the tasks are loaded.*

**Keywords:** *education, upbringing, inclusive, development, improvement, action*

## **KIRISH**

Mamlakatimizda ta’lim tizimiga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilmoqda. O‘tgan davr mobaynida mamlakatimizda o’sib borayotgan avlodni sog‘lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta’lim-tarbiya jarayoniga samarali ta’lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta’limning samarali tizimini tashkil etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, olib borilgan tahlil, bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrovini ta’minlash, maktabgacha ta’lim muassasalarini zamonaviy o‘quv-metodik materiallar va badiiy adabiyotlar bilan to‘ldirish, sohaga malakali pedagog va boshqaruv kadrlarini jalb qilish masalalarini hal etish zarurligini ko‘rsatmoqda. Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta’limdan teng foydalanishini ta’minlash, maktabgacha ta’lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Konsepsiya ikki bosqichda amalga oshirish, jumladan: 2020 — 2022-yillar davomida: inklyuziv ta’lim tizimi sohasidagi normativ baza takomillashtirish; inklyuziv ta’lim tizimi uchun malakali pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta va malakasi oshirish; inklyuziv ta’lim joriy etilgan muassasalarning moddiy-texnika bazasi mustahkamlanishi, ular maxsus moslamalar (ko‘tarish qurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), zarur adabiyotlar, metodik qo‘llanmalar, turli kasblarga o‘qitish uchun uskuna

20-Aprel, 2026-yil

va jihozlar bilan ta'minlanishi; inklyuziv ta'lim sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalar joriy etish; alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv o'qitishning mazmun-mohiyatini tushuntirish orqali aholi o'rtasida ijobiy ijtimoiy muhit shakllantirish; alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni kamsitish, ularga salbiy muomalada bo'lishning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirish; inklyuziv ta'lim tizimi tajriba-sinov tariqasida alohida ta'lim muassasalarining faoliyatiga joriy qilish; 2023 — 2025-yillar davomida: inklyuziv ta'lim tizimi bosqichma-bosqich boshqa umumiy o'rta ta'lim muassasalarida joriy qilish; alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan har bir bolaning inklyuziv ta'lim olish huquqini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirish; inklyuziv ta'limda o'qitish usullari takomillashtiriladi hamda ta'lim jarayoniga individuallashtirish tamoyillari bosqichma-bosqich joriy etish; inklyuziv ta'lim jarayonida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga, ularning jismonan sog'lom va baquvvat shakllanishiga qaratilgan choralar ko'rish; o'quvchilarning jismoniy va aqliy ehtiyojidan hamda ta'lim muassasalarining geografik joylashuvidan kelib chiqib alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalari soni optimallashtirish belgilab qo'yildi.

Maktabgacha ta'lim tizimida inklyuziv ta'limning ahamiyati shundaki, imkoniyati cheklangan bolalarni ilk yoshlaridanoq sog'lom bolalar qatoriga qo'shib sifatli ta'lim olishini ta'minlagan holda bolada ruhiy va jismoniy hissiyotlarini va haraktlarini rivojlantirishdir.

Inklyuziv ta'limda imkoniyati cheklangan bolalarga nima beradi? -o'z imkoniyatini o'zi uchun kashf etish imkonini beradi

- mustaqil harakatlanish birgalikda, hamkorlikda ishlash imkoniyati orqali yuzaga keladi; -dunyoqarashi kengayadi, hayotiy tajribasi oshadi;

-o'qishga bo'lgan ehtiyeji va qiziqishlari ortadi;

-O'zini barcha bilan bir xil his qila boshlaydi; -Ilgari sezilmagan imkoniyatlari ochiladi;

-Yotsirash, yakkalanish kabi xususi yatlari yo'qoladi. Inklyuziv ta'lim sog'lom bolalar hayotiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

-O'zlariga o'xshamagan tengdoshlari va ularning hayoti, ehtiyojlarini his qiladilar;

-Tengdoshlariga g'amxo'rlik hissi uyg'onadi; -Ularni qo'llab-quvvatlash, yordam berishga intilish

-insonparvarlik hissi tarbiyalanadi; -O'quvchilarda atrofdagi insonlarga, imkoniyati cheklanganlarga pozitiv munosabat, o'zaro hurmat tarbiyalanadi

-Yoramga muhtoj insonlarga e'tibosizlik qilmaydigan shaxsga aylanadilar

-Hozirda mamlakatimizda inklyuziv ta'limga yo'naltirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari kun sayin ko'payib va takomillashib bormoqda.

Inklyuziv ta'lim bu - ta'limni o'zgartirish jarayoni bo'lib, barcha bolalar undan foydalanishi, uni bolalarning turli ehtiyojlariga moslashtirish mumkinligini ko'zda tutadi. Inklyuziv maktabgacha ta'lim bolaning ijtimoiy hayotga moslashuvining ilk va hal qiluvchi

bosqichi hisoblanadi. Inklyuziv maktabgacha ta’lim pedagoglar oldiga: - rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolaning tengdoshlari singari birdek ta’lim olish imkoniyatini yaratish; - bolaning yoshi, uning ehtiyojlari, imkoniyatlari, qobiliyati, iqtidorini e’tiborga olgan tegishli shart-sharoitlarni yaratish; - bolaning ta’lim - rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning ota-onalarini qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, farzandlarining ta’limi va tarbiyasi masalalarida ularga ko‘maklashish va maslahatlar berish vazifalarini belgilaydi. Inklyuziv ta’limning vazifalarini amalga oshirishda pedagoglarning o‘zaro hamkorligi yetakchi o‘rin egallaydi. Defektolog va psixolog maktabgacha ta’lim tashkilotida tashkil etiladigan tibbiy-psixologik-pedagogik kengash a’zolari sifatida bolalarni tashxis qiladilar, hamkorlikdagi korreksion-rivojlantiruvchi faoliyatni amalga oshiradilar, ota-onalar hamda maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagoglariga maslahatlar beradilar. Defektolog va psixolog tomonidan dastlabki tashxis, bola rivojlanish dinamikasini o‘rganishga qaratilgan tashxis, yakuniy tashxis amalga oshiriladi. Dastlabki tashxis. Dastlabki tashxis bola bilan tashkil etiladigan faoliyatning boshlang‘ich bosqichida amalga oshirilib, uning yakunlariga ko‘ra defektolog psixolog bilan birgalikda bolaning individual ta’lim yo‘nalishini belgilaydi. Bola rivojlanish dinamikasini o‘rganishga qaratilgan tashxis sentabr oyidan may oyiga qadar bola uchun eng maqbul ta’lim yo‘nalishini belgilash, har bir bolaga ta’lim berishning samarali metod, usul, shakl va vositalarini tanlash maqsadida amalga oshiriladi. Yakuniy tashxis o‘quv yilining so‘ngida korreksion ta’sirning samaradorligini aniqlash maqsadida amalga oshiriladi. Tashxis bola kompensator imkoniyatlari, rivojlanish dinamikasi, meyorda rivojlanayotgan tengdoshlari guruhiga moslasha olganlik darajasini baholash imkonini beradi. Korreksion-rivojlantiruvchi faoliyat yakka hamda guruhli mashg‘ulotlarni o‘tkazishga qaratilgan bo‘lib, bunda defektolog hamda psixolog tomonidan amalga oshiriladigan ishlarning bir-birini to‘ldirib borishi - korreksion ishning samaradorligini ta’minlaydi. Yakka mashg‘ulotlar bolaning mavjud imkoniyatlarini rivojlantirish, nuqsonlarini bartaraf etishga qaratilgan bo‘ladi. Har bir mashg‘ulot pedagoglar va tibbiyot xodimlari ishining yo‘nalganligini e’tiborga olgan holda tashkil etiladi. Misol uchun, defektologning nutqni rivojlantirishga qaratilgan faoliyatiga qo‘shimcha tarzda psixolog tomonidan muloqotga kirishish malakalarini shakllantirish, uqalovchi hamshiraning motorikani rivojlantirishga qaratilgan faoliyati qo‘shiladi. Guruhli mashg‘ulotlar bolalarning bilish jarayonlarini rivojlantirgani kabi, ijtimoiy vazifalarni ham hal etadi. Ya’ni mazkur mashg‘ulotlar “O‘ziga xos” bolalarga o‘z tengdoshlariga taqlid qilish, ulardan o‘rganish imkonini bersa, meyorda rivojlanayotgan bolalar o‘z navbatida “o‘ziga xos” bolalar bilan bir muhitda bo‘lishga moslashadilar. Bunda psixologning vazifasi bolaga ruhiy va jismoniy jihatdan rivojlanishi uchun qulay rivojlantiruvchi muhitni yaratish, bolaning imkoniyatlari, qiziqishlariga mos tarzda uning qobiliyatlarini rivojlantirish, rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolaning meyorda rivojlanayotgan tengdoshlari jamoasiga, va aksincha guruhning bolaga moslashishida muammolar yuzaga kelishini oldini olish, muammo yuzaga kelgan holatlarda bolalarga psixologik yordam ko‘rsatishdan iborat. Navbatdagi hamkorlik maslahat ishlari bo‘lib, ota-onalarga maslahat-ko‘mak berish defektolog va psixolog hamkorligini talab etadi. Boisi, ko‘pgina ota-onalar farzandlarining rivojlanish istiqbollarini ko‘ra olmaydilar,

# “O‘ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS VA INNOVATSION JARAYONLAR JURNALI”

20-Aprel, 2026-yil

farzandlari bilan o‘zaro ishonch va ko‘makka asoslangan munosabatni o‘rnata olmaydilar, turli vaziyatlarda farzanlarining hatti-harakatlariga adekvat munosabat bildira olmaydilar. Pedagogik jamoaga bolaning o‘ziga xosligini tushunish, uni qanday bo‘lsa shundayligicha qabul qilish, ta‘lim-tarbiya jarayoniga korreksiya elementlarini singdirishga doir ish usullari bilan tanishtirishdan iborat. Pedagogik jamoa va ota-onalarni rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolaning rivojlanishi, muvaffaqiyatli moslashuvi va ijtimoiylashuviga qaratilgan faoliyatga jalb etish, meyorda rivojlanayotgan bolalarni ularga nisbatan do‘stona, mehr-muhabbatli munosabatda bo‘lishga, ularni qo‘llab-quvvatlashga o‘rgatish hamkorlik mazmunini tashkil etadi. Inklyuziv ta‘lim jarayonining sifatini oshirish uchun pedagog-mutaxassislar va otaonalar: - mutnazam tarzda o‘zaro hamkorlikda faoliyatni amalga oshirishlari; - bir-birlariga maslahat, tavsiyalar ko‘rinishida o‘zaro ko‘mak berishlari; yagona professional jamoa sifatida samarali faoliyatni amalga oshirishlari kerak.

## Xulosa

Maktabgacha ta‘lim muassasalarida inklyuziv ta‘limni joriy etish – zamonaviy ta‘lim tizimining eng dolzarb yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu jarayon nafaqat maxsus ehtiyojli bolalarning ta‘lim-tarbiyasini ta‘minlaydi, balki ularning jamiyat hayotiga to‘laqonli qo‘shilishiga zamin yaratadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv ta‘lim tizimi bolalarning shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvi va psixologik barqarorligini mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi. Pedagogik yondashuvlar inklyuziv guruhda ta‘lim berishda differensial va individual ta‘lim metodlarini qo‘llashni talab etadi. Psixologik asoslar esa bolaning qobiliyatlari, individual ehtiyojlari va rivojlanish sur‘atlarini inobatga olgan holda, o‘qituvchi va tarbiyachining muloqot madaniyatini yuksaltirishni, hamdardlik va bag‘rikenglik fazilatlarini shakllantirishni taqozo etadi. Maktabgacha ta‘lim muassasalarida inklyuziv ta‘limni samarali tashkil etish uchun moddiy-texnik baza, malakali pedagoglar va maxsus psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash tizimi zarur. Ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish, ularga psixologik maslahatlar berish va bolani oilada to‘g‘ri qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirish muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotdan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, inklyuziv ta‘limni joriy etishning muvaffaqiyati pedagoglarning kasbiy mahorati, psixologik tayyorgarligi hamda ta‘lim jarayonini tashkil etishdagi ijodkorligiga bog‘liq. Inklyuziv ta‘lim insonparvarlik g‘oyalariga asoslangan, barcha bolalarga teng imkoniyat yaratishga qaratilgan tizimdir. Uni maktabgacha ta‘lim muassasalarida to‘laqonli joriy etish jamiyatning ijtimoiy rivojlanishiga, kelajak avlodning barkamol shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Shu bois, davlat siyosatida inklyuziv ta‘limni qo‘llabquvvatlash, pedagog va psixologlarning malakasini oshirish hamda ijtimoiy ongda bu tizimning ahamiyatini keng targ‘ib qilish zarurdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – 48 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent: Adolat, 2020. – 32 b.

20-Aprel, 2026-yil

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. PQ–4860-son, 13.10.2020 y.

4. Hasanboeva O., Yo‘ldosheva Sh. Pedagogika. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2019. – 352 b.

5. Qurbonova M. Maktabgacha ta‘lim pedagogikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 276 b.

6. Mahmudova N., Tursunova G. Psixologiya asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2018. – 240 b.

7. Karimova V. Inson psixologiyasi va rivojlanish bosqichlari. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2022. – 198 b

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida qarori PQ-4312 08.05.2019

9 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida ta‘lim olish ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta‘lim- tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risidagi qarori -4860 13.10.2020 3. Д.3. АХМЕТОВА,